

ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining
2-sinfi uchun

MASHQ DAFTARI

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan

Yangi nashr



Toshkent – 2021

UO'K 811.512.133(075.3)
KBK 81.2(5O'zb)ya71
O 58

Tuzuvchilar:

Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun

Xalqaro ekspert:

Lannuzzi Susan

Taqrizchilar:

- B. Mengliyev** – filologiya fanlari doktori, professor.
N. Asqarova – Toshkent shahri Yashnobod tumanidagi
67-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Ona tili va o'qish savodxonligi [Matn]: 2-sinf uchun mashq daftari /
K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 72 b.

*UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi
bilan hamkorlikda tayyorlandi.*

*Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari
hisobidan chop etildi.*

*Original maket va dizayn konsepsiyasi
Respublika ta'lim markazi tomonidan ishlandi.*

VATANPARVARLIK NIMA?

1. “O‘zbekiston” deganda xayolingizga qaysi so‘zlar kelyapti? Ularni bo‘g‘inga ajratib yozing.

Namuna: Va-tan,

Handwriting practice lines for the first exercise, consisting of five sets of three horizontal lines with a diagonal line on the left, forming a grid for writing.

O‘zbekiston tarkibidagi respublika va 12 ta viloyat nomini yozing.


Namuna: Farg‘ona,

Handwriting practice lines for the second exercise, consisting of five sets of three horizontal lines with a diagonal line on the left, forming a grid for writing.



2. Tinglagan matningiz asosida berilgan topshiriqlarni bajaring.

Quyidagi gaplarni harakatni bildiruvchi so‘zlar bilan to‘ldiring.



1. Tandirda non, somsa va tandirkabob kabi mazali taomlar _____.

2. Qadimgi odamlar tandirdan nafaqat taom pishirishda, balki uylarni isitishda ham _____.

3. Maxsus tandirlar juda qimmat _____ va ularni yasaydigan ustalar ham kam _____.

✓ **Gaplar tarkibidagi ajratilgan soʻzlarni ular ifodalagan maʼnoga koʻra savatchalarga joylang.**

Shundagina u **oʻn** yillar davomida yuqori haroratga dosh bera oladi. Tandir asosan **ikki** turli boʻladi.

Bolalar tandirda qolgan choʻgʻga **joʻxori**, **kartoshka** va **tuxum** koʻmib, pishirib yeyishlari ham mumkin.

Tandir sovgidan soʻng, bu **qarsildoq** nonni tanovul qilish ham juda **yoqimli**.



Narsa nomini bildiruvchi soʻzlar (nima?)



Belgini bildiruvchi soʻzlar (qanday?)



Miqdorni bildiruvchi soʻzlar (necha?)

✓ **Matndagi maʼlumotlar qay darajada esingizda qolganini sinab koʻrish uchun quyidagi jadvalni toʻldiring.**

Tandir nimaga xizmat qiladi?		Tandir ikki turli bo'ladi		Tandir loydan yasaladi, unga...	
Taom pishirish uchun	?	Xonadonlar uchun kichik tandir	?	tuya juni aralashtiriladi	?

Dunyoning istalgan burchagiga tandirni olib borish uchun nimalar qilish kerakligini yozing.

1. / / / / /

2. / / / / /

3. / / / / /



3. Izohingizni yozing.

/ / / / /

/ / / / /

/ / / / /

/ / / / /


/ / / / /

/ / / / /

/ / / / /

/ / / / /

3.3. Matn yuzasidan berilgan topshiriqlarni bajaring.



✓ Ushbu matnga qanday sarlavha mos keladi, deb o'ylaysiz? Topgan sarlavhangizni yozing.

Blank handwriting lines for writing an answer.

✓ Berilgan matn quyidagi qismlardan iborat. Ular qay tartibda joylashishi lozim? Raqamlar bilan ketma-ketligini belgilang.

Harakatda barakat

O'rmonga o't ketishi

O'tloq – mening Vatanim

✓ Matndagi jonzotlar nomlarini yozing.


Blank handwriting lines for writing animal names.

✓ Matnning xulosa qismini aniqlang va ko'chirib yozing.

Blank handwriting lines for copying the summary part of the text.



4. Mos qofiyadosh soʻzlarni toping.



✓ She'r matnidagi ketma-ketlik asosida rasmlarni tartiblab chiqing.

✓ She'r matnidan olingan gaplarning to'g'ri yoki xato yozilganini aniqlang.

Uy-xovlini sipirip.



Uy-hovlini supurib.

Shoxda shaqillar Hakka.



Shohta shaqillar Xakka.

Yo'lakga suv sepib qo'y.



Yo'lakka suv sepib qo'y.

✓ “Mahallamiz jarchisi” she’ridan bitta xabar, bitta so’roq hamda bitta buyruq mazmunidagi gapni ko’chiring. Tinish belgilarini to’g’ri qo’ying.

Siz Vatanni qanday tasvirlaysiz? Vatanimiz manzara-
larini chizing.

“Men Vatanni shunday tasvirlayman”



KATTA BO‘LSAM, NOBEL MUKOFOTINI OLAMAN!

1. Maqollarni yozing.

Blank writing area with horizontal and diagonal blue lines.

2. Berilgan topshiriqlarni bajaring.

Nobel mukofoti qaysi sohalar bo‘yicha beriladi?

1.
2.
3.

4.
5.
6.



Matn asosida berilgan ma'lumotlar ketma-ketligini aniqlang.

A. Hozirda Nobel fondi mablag'lari 300 million AQSH dollariga yaqinlashib qolgan.

B. Ilk Nobel mukofoti 1901-yili Anri Dyunan va Frederik Passi ismli odamlarga topshirilgan.

D. Avvaliga 300 ta nomzod saralab olinadi va ularning ismi sir saqlanadi.

E. Alfred Nobel 350 dan ortiq harbiy qurollar ixtiro qiladi.

F. Oktyabr oyida esa barcha yo'nalish g'oliblari aniqlanadi.

1	2	3	4	5

Berilgan gaplardagi bo'sh o'rinlarni to'ldiring.

Nobel yaratgan yovuz _____ minglab odamlarning hayotiga zomin bo'lgandi.


Mukofotni qo'lga kiritishingiz uchun Nobel qo'mitasiga ishlaringizga yuqori baho bergan dunyoga mashhur _____, _____ xat yozishi kerak.

Nobel mukofoti bilan taqdirlash marosimi har yili 10-dekabrda Shvetsiya hamda _____ poytaxtlarida tantanali ravishda bo'lib o'tadi.



Qo'yish uchun so'zlar: olimlar, yozuvchilar, davlat arboblari, qurollar, Norvegiya, Fransiya.

☑ Alfred Nobelning o'z nomidagi mukofotni o'ylab topishdan maqsadi nima edi?




☑ Har bir gapda xato yozilgan 2 tadan so'z bor. Ularni aniqlang.

Lekin yillar o'tip, ixtirochi qilgan ishlaridan afsuslanadi. Aytishlaricha, olim odamlar uni kechirishi uchun Nobel mukofotini o'ylab topkan.

Mukofotni qo'lga kiritish uchun Nobel qo'mitasiga o'zingiz murojat etmaysiz.




3. Olim va mutaxassislarning nimalar bilan shug'ullanishi haqida yozing.




BIOLOG

Bu olim tabiatdagi tirik jonzotlarni o'rganadi. O'simliklar, hayvonlar va odamlarning hayotini yaxshilashga xizmat qiladi.




KIMYOGAR



MATEMATIK



FIZIK



ME'MOR



IQTISODCHI



4. Berilgan topshiriqlarni bajaring.

Berilgan ma'lumotlarni matn asosida to'ldiring.

Hikoya qahramonining ismi: _____

Familiyasi: _____

Nechanchi sinf o'quvchisi? _____

Nimalarga qiziqadi? _____

Sevimli fanlari: _____

Tanlagan kasbi: _____

Ma'lumotlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.

Muhammad NASA, SpaceX kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlamoqchi.	To'g'ri Noto'g'ri
Muhammad yasagan fazoviy kemada istalgan davlatga borish mumkin.	To'g'ri Noto'g'ri
Yaxshi astronom bo'lish uchun fizika, matematika va kimyoni chuqurroq o'rganish kerak.	To'g'ri Noto'g'ri
O'zbekistonlik olimlar Nobel mukofotini qo'lga kiritgan.	To'g'ri Noto'g'ri
Muhammadning osmondagi yulduzlar, sayyoralar haqida ko'proq bilgisi keladi.	To'g'ri Noto'g'ri
Nobel mukofotini olish uchun boy bo'lish kerak.	To'g'ri Noto'g'ri

✓ To'g'ri yozilgan gaplarni aniqlang.

1. Men tabiyatdagi g'aroyib narsalarga qiziqaman.
Men tabiatdagi g'aroyib narsalarga qiziqaman.

2. Katta bo'lsam, astronom bo'laman.
Katta bo'lsam astronom bo'laman.

3. Men yasagan kemada fazogirlar oy va marsga uchishadi.

Men yasagan kemada fazogirlar Oy va Marsga uchishadi.

4. Men nobel mukofotini olgan brinchi o'zbekistonlik bo'lishim mumkun.

Men Nobel mukofotini olgan birinchi o'zbekistonlik bo'lishim mumkin.



5. “Katta bo'lsam, Nobel mukofotini olaman” nomli hikoya yozing.

A large area of blue-lined handwriting practice paper with four vertical columns and ten horizontal lines.



MAKTABIM – IKKINCHI UYIM

1. Berilgan qaysi soʻzlarga partadosh soʻzidagi **-dosh** qoʻshimchasini qoʻshish mumkin? Aniqlab yozing.

2. Berilgan soʻzlardan mosini qoʻyib, matnni toʻldiring.

sinxona

madrasa

yoʻzish

oʻqish

yurtimiz


maktabxona

uviversitet

qorixona

sanash

_____da qadim zamonlardan beri maktablar boʻlgan. Tarixda maktablar _____, _____ deb atalgan. Bunday maktablarda bolalar faqat _____ va _____ni oʻrganishgan. Taʼlimning yuqori bosqichi esa _____larda davom etgan.



3. Moslashtiring.

hanuzgacha

qayta quymoq

aqalli

shu paytgacha

kor qilmoq

ta'sir qilmoq


shopirmoq

hech bo'lmasa

4. Matndan 3 ta xabar mazmunidagi gapni aniqlab yozing.

Namuna: U hozir ikkinchi sinfda o'qiydi.

5. Hikoyadan jadvaldagi so'roqlarga mos keluvchi so'zlarni aniqlab yozing.



Kim?	Kimlar?	Nima?
Firdavs		Dars

6. Berilgan soʻzlarni sheʼrdagi kabi taʼriflab gaplar tuzing.

oʻqituvchi

sinf-dosh

kitob

maktab


Namuna: Maktab – ona kabi mehribon.

Blank writing area with horizontal and diagonal lines for student response.




7. Maktabda eng ko'p qo'llaydigan so'z va gaplar-ingizni yozing.


Uchrashganda





Ruxsat
so'rashda



Dars
yakunida



8. Maktabingizdagi muammolarni yozing.



Maktabim direktori bo'lib qolsam...

A series of horizontal blue lines for writing, with four vertical blue lines creating four columns.



TUG'ILGAN KUNING BILAN

1.2. Savollarga javob yozing.

1. Sizing tug'ilgan kuningiz qaysi oyning qaysi kunida?

_____ / _____ / _____ / _____

2. Sizga nima sovg'a berishlarini istaysiz?

_____ / _____ / _____ / _____

3. Tug'ilgan kuningizga kimlar mehmon bo'lib kelishini xohlaysiz?

_____ / _____ / _____ / _____

4. Tug'ilgan kuningizda berilgan qaysi sovg'a sizni eng ko'p xursand qilgan?

_____ / _____ / _____ / _____



4.1. Jadvalning ikki ustunidagi gaplarni solishtiring.

Sharikning burgasi borligini ko'pchilik biladi.

Burgaga qarshi bo'yinbog' taqqanida esa buni hamma bilib qoladi.



O'zimga fotomiltiq olardim.

Senga separator olib berardim.

Matroskin Sharikka nima sovg'a qilishni bilmadi.

Buni o'zidan so'rab, bilib olmoqchi edi.

4.2. Bilib oldi, bilib qoldi, biladi so'zlarini mos o'ringa qo'ying.


Matroskin Sharikning burgasi borligini _____.

Sharik burgaga qarshi bo'yinbog' taqsa, hamma uning burgalganini _____.

Matroskin Sharikdan ko'p puli bo'lsa, nima qilishini so'radi. Matroskin Sharikning ko'p puli bo'lsa, u do'stlariga sovg'a olishini _____.

4.3. Partadoshingiz bilan ishlang. Tasavvur qiling, siz ham Sharikning tug'ilgan kuniga taklif qilingansiz. Unga nima sovg'a qilasiz? Buni yoningizdagi o'rtog'ingizga aytib bering. Uning ham Sharikka nima sovg'a qilmoqchiligini eshiting. Eshitganingiz asosida savollarga javob yozing.

1. O'rtog'ingiz Sharikning tug'ilgan kuniga nima sovg'a qilmoqchi?



2. Bu sovg'adan Sharik qanday foydalanadi?

3. Sizningcha, bu sovg'a Sharik uchun foydalimi?

6.2. She'rga asoslanib, rasmdagi bolalarning ismini yozing.



Quyidagi so'zlardan foydalanib, o'z tabrigingizni tuzing.

Sevimli

Qadrlı

Aziz

Hurmatli

o'rtog'im

do'stim

dugonam

Tugʻilgan

Tavallud

bilan tabriklayman

bilan qutlayman

muborak boʻlsin

kuningiz

oʻqishingizda muvaffaqiyat

baxt-omad

Sizga

tilayman

uzoq umr

salomatlik

sogʻliq

dugonang

Hurmat bilan

doʻsting


oʻrtogʻing



MENING MAHALLAM

Mahalla bilan bog'liq so'zlarni topib yozing.

Namuna: qo'shni.



Xatosiz yozilgan gaplarni aniqlang.

Mahalladoshlarimiz yolg'iz, bemor kishilarning ahvolidan xabar olishni, qiyinalganlarga yordam qo'lini cho'zishni o'z burchlari dep biladilar.

Mahalladoshlarimiz yolg'is, bemor kishilarning ahvolidan xabar olishni, qiyinalganlarga yordam qo'lini cho'zishni o'z burchlari deb biladilar.

Shu kuni barvaqt turib, dadam bilan mahallaga chiqamiz.

Shu kuni barvaqt turip, dadam bilan mahallaga chiqamis.

Hamma topganini o'rtaga qo'yib, ko'pchilik bilan birga baham ko'radi.

Hamma topganini o'rtaga qo'yib, ko'pchilik bilan birga baham ko'radi.



Mahalladagi qo'shnilaringiz bir-birlari bilan uchrashib qolganda eng ko'p qanday so'z yoki gaplarni ishlatadi? Yodingizda qolganlarini yozing.

Handwriting practice lines consisting of four columns of horizontal lines with diagonal lines forming a grid.



Takror ishlatilgan so'zlarni boshqasiga almashtirib gaplarni ko'chiring.


1. **Mahalla** so'zi "o'rin-joy" degan ma'noni bildiradi. **Mahalla** turli hududlarda "guzar", "jamo'a", "elat", "elod" deb atab kelingan.

Handwriting practice lines consisting of four columns of horizontal lines with diagonal lines forming a grid.






2. Mahallada **qo'shnilar** katta oila bo'lib yashashadi.
Qo'shnilar bir-birlariga yordam berishadi.



She'rdagi ajratilgan so'zlarni izohi bilan moslab ko'chiring.


Barobar



Surolmayman




Ta'na qilmoq



Rangi somon



Tansiq



Vaqt chog'



Soz



O'zingiz yashayotgan mahalla haqida matn tuzing.


A series of horizontal blue lines for writing, with four vertical blue lines creating four columns.



QISHDA UXLAYDIGAN HAYVONLAR

Qishda uxlaydigan hayvonlarning nomini bo'g'inga ajratib ko'chiring.

Namuna: yum-ron-qo-ziq.




Nuqtalar o'rniga berilgan so'zlardan mosini qo'yib gaplarni to'ldiring.

1. Yovvoyi hayvonlar, qushlar va hasharotlarning yashash va ko'payish uchun moslab yasagan joyi – bu _____.

2. _____ davlat tomonidan himoya qilinadigan o'simlik, hayvon, foydali qazilmalar joylashgan tabiiy hududdir.

3. _____ och qolib ketsa, _____ga ham hujum qilishi mumkin.



4. Bolalar ayiqlarni faqatgina _____ yoki _____ da ko'rishgan.

Qo'yish uchun so'zlar: ayiqlar, hayvonot bog'i, uya, uy hayvonlari, qo'riqxonona, sirk.



1. "Qish ro'moli" hikoyasidagi ajratib ko'rsatilgan qismlarni izohlab yozing.

Kuzgi xazonlar yerning ko'rpasiga aylangan –
Kuz faslida daraxt barglari to'kiladi. Yerga qalin to'kilgan xazonlar xuddi ko'rpaga o'xshaydi.

Ohista odimlab boryapti –

Four sets of blue handwriting lines, each consisting of a top line, a middle line, and a bottom line, with a diagonal slash on the left side of each set.

Tabiat yashil libosini kiymaguncha –


Four sets of blue handwriting lines, each consisting of a top line, a middle line, and a bottom line, with a diagonal slash on the left side of each set.

Qor ham asta uchqunlay boshladi –


Four sets of blue handwriting lines, each consisting of a top line, a middle line, and a bottom line, with a diagonal slash on the left side of each set.




Ostona hatlab uyga kirishim hamon –



Holi-jonimizga qo'ymayotgan eding –



Butun borliq qishning ro'moliga o'ranadi –



2. Matn asosida berilgan fikrlarni to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.

Har doim izg'irin shamoldan keyin qor yog'adi.

To'g'ri
Noto'g'ri

Tipratikan bahor kelmaguncha,
uyqudan turmaydi.

To'g'ri
Noto'g'ri

Oyisi hammayoq qishning ro'moliga
o'ranishini aytdi.

To'g'ri
Noto'g'ri

Tipratikan tez-tez yurib ketyapti.

To'g'ri
Noto'g'ri



Tipratikan o'z qo'llari bilan soyabon yasab olgan.	To'g'ri Noto'g'ri
Tipratikanni "kirpi" deb ham ataymiz.	To'g'ri Noto'g'ri




Jonivorlar qanday holatda uxlashini she'rdan aniqlab yozing.


Ko'rshapalak	/	/	/
Musicha	/	/	/
Qurtlar	/	/	/
It	/	/	/
Ayiqpolvon	/	/	/
Mushuk	/	/	/
Qushlar	/	/	/



Hayvonlarni tasvirlab namunadagidek gaplar tuzib yozing.

Namuna: O'rmonda *qo'rqmas* sher yashagan ekan.





“Qizil kitob”ga kiritilgan noyob hayvonlar bilan tanishing. Ularning biri haqida hikoya yozing.



Ko‘k sug‘ur, qo‘ng‘ir ayiq, tipratikan

A large area of blue-lined paper for writing, consisting of four vertical columns and many horizontal lines.



YER OSTIDA NIMA BOR?

1.1. Tabiiy qazilma boyliklarni berilgan soʻzlar bilan moslang.



marmar

gaz

alyuminiy

ohaktosh

kumush

neft

oltin

koʻmir

1.

2.

3.

4.

5.

6.

7.

8.

1.2. Oʻzingiz yaxshi bilgan qazilmaning xususiyati yoki undan qanday maqsadda foydalanishimiz haqida gaplar tuzing.

Namuna: Kumushdan turli taqinchoqlar yasaladi.

Blank handwriting practice lines consisting of four sets of horizontal lines with a diagonal line on the left side of each set.



Jadvalni to'ldiring.

OLTIN

1.	Rangi	
2.	Xususiyati	
3.	Nimalar tayyorlanadi?	
4.	O'zbekistondagi eng katta oltin koni	



Matn qismlariga mos sarlavhalarni tanlang.

Neftdan olinadigan mahsulotlar –

Blank handwriting practice lines consisting of four sets of horizontal lines with a diagonal line on the left side of each set.



Samolyotlar uchmay qo'ysa –

Four sets of blue handwriting lines for the sentence "Samolyotlar uchmay qo'ysa –".

Ilk neft koni –

Four sets of blue handwriting lines for the sentence "Ilk neft koni –".

G'alati suyuqlik –

Four sets of blue handwriting lines for the sentence "G'alati suyuqlik –".

Neft qanday olinadi? –

Four sets of blue handwriting lines for the sentence "Neft qanday olinadi? –".

Loy va tosh aralashmasi –


Four sets of blue handwriting lines for the sentence "Loy va tosh aralashmasi –".



Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring.

4.1. Quyidagi ma'lumotlar matnning qaysi qismiga oid ekanligini aniqlang.

1	Juda ko'p sohalarda ishlatilgani uchun ham uni "qora oltin" deyishadi.	
2	O'zbekiston ham neft qazib oluvchi davlatlar sirasiga kiradi.	
3	Topilgan ajoyib suyuqlikni odamlar "qora moy" deb nomlashibdi.	
4	Qaysi qismda "neft daryosi" haqida fikr bildirilgan?	



4.2. Quyida berilgan narsalarning qaysi birlari neftdan olinadi? Ularni belgilang.

Qog'oz

Kir yuvish vositalari

Ruda

Sham

Sun'iy ip

Tish pastasi

Plastmassa

Oltin



4.3. Quyida berilgan gaplarning bo'sh o'rinlarini to'ldiring. O'zingiz qo'ygan so'zning so'rog'ini aniqlang.


1. Bu _____ suyuqlikni odamlar "qora moy" deb atashibdi.
2. Qadimda ko'chalar bugungi kundagidek _____ bilan emas, _____ bilan yoritilgan.
3. Bir safar quduq tubidan suv emas, _____ moy chiqib qolibdi.
4. Neft qazib olish uchun _____ temir quvurlar kerak bo'ladi.

Qo'yish uchun so'zlar: mash'alalar, uzun, keng, elektr chiroqlari, qora, g'alati, fonarlar.



She'r asosida jadvaldagi qismlarni moslashtiring.

tilsim	qimmatbaho toshlardan turli buyumlar yasaydigan usta
hamon	sehrli narsa
kezi kelsa	sabrsizlik bilan kutish
bob	dunyo, borliq
zargar	zarur bo'lganda
olam	qism, bo'lak
xazina	ixtiyoremizga
mushtoq	hozirgacha
izmimizga	boylik
	bor



Xaritadan foydalanib viloyatlarda qanday konlar borligini yozing.

Namuna: Andijon – neft va tabiiy gaz.

1. Toshkent _____
2. Qashqadaryo _____
3. Surxondaryo _____
4. Sirdaryo _____
5. Samarqand _____

6. Jizzax

7. Buxoro

8. Xorazm

9. Navoiy

10. Namangan

11. Farg'ona


Berilgan ma'lumotlar yordamida sahro bolalariga yordam berish uchun takliflaringizni yozing.

Blank handwriting practice area with four vertical lines and horizontal lines.



SAYOHATCHI QUSHLAR

1.2. Rasmlarga qarab qushlarning nomini yozing.



2.3. Moslashtiring.

Sharq

Quyosh botadi

G'arb

Quyosh chiqadi

Shimol

Sharqqa qarab tursak, o'ngda

Janub

Sharqqa qarab tursak, chapda




3.3. Darsda o‘tilganlar asosida janub haqidagi qaysi fikrlar to‘g‘riligini belgilang.

Janubda havo sovuq.	To‘g‘ri Noto‘g‘ri
U yerda katta botqoqlar bor.	To‘g‘ri Noto‘g‘ri
Janubda pashshalar bor.	To‘g‘ri Noto‘g‘ri
U yerda chivinlar yo‘q.	To‘g‘ri Noto‘g‘ri
Quyosh janubdan chiqadi.	To‘g‘ri Noto‘g‘ri

4.3. Ma‘nosi o‘xshash so‘zlarni birlashtiring.

katta **uchish** **juda ko‘p**

bor bo‘lganda-chi! **ulkan** **parvoz qilish** 

7.1. So‘zlarning ohangdoshini to‘g‘risiga yozing.

qadrdon – _____

qarqunoq – _____

qanot – _____

tak-tak – _____

shox tashlab – / / /
surnayin – / / /
g‘oz – / / /
“pup-pup” – / / /

Qo‘yish uchun so‘zlar: yoqdan, mehribon, ko‘zlari munchoq, samolyot, laylak, irg‘ishlab, jo‘r nayin, dorboz, to‘p-to‘p.



8.2. Qaldirg‘ochlar haqida matn yozing. Unda ushbu savollardan foydalaning.


Qaldirg‘ochlar qachon keladi?

Qaldirg‘ochlar o‘z inlarini qayerga quradi, inni nimadan quradi, qanday quradi?

Qaldirg‘ochlar qachon bola ochadi? Ular odatda nechta bo‘ladi?

Qaldirg‘och polaponlarini qanday boqadi? Qaldirg‘och polaponlarini qanday uchirma qiladi?





BAKTERIYA VA MIKROBLAR

Mos soʻzlar bilan davom ettiring.

Yuvilmagan qoʻl, _____

Sifati buzilgan _____

Qoʻyish uchun soʻzlar: soch, taom, tish, sut, idish, meva.



Kitobingizdagi 4 ta matn (sheʼr yoki hikoya)ning sarlavhasi hamda uning muallifini yozing.

1. _____

2. _____

3. _____

4. _____



Sheʼr matni asosida mikrobgga xos sifatlarni yozing: tekinoxʻr.



Bular kim? Ismlarini yozing.



Bo'sh o'rinlarni to'ldiring. *Chunki, ammo, lekin* so'zlaridan foydalaning.

1. Mevalarni yeyishdan oldin yuvish kerak, _____ ularda mikroblar bo'lishi mumkin.

2. Atrofdagi bakteriyalar juda ham ko'p, _____ biz ularni ko'zimiz bilan ko'ra olmaymiz.

3. Bakteriyalar insonlar uchun zararli, _____ hammasi ham unday emas.

4. Yuvilmay yurgan odamlar tanasida bakteriyalar ko'p bo'ladi, _____ ular kir joylarni yaxshi ko'radi.

Qaysi so'zlar to'g'ri yozilgan? Ko'chirib yozing.

Mikro'b

Mikroskop

Milyon

Million

Mikrob

Mikrasko'p

FOYDALI NONUSHTA

1. Ovqatlanish bilan bog'liq harakatni bildiruvchi so'zlarni yozing.

Yemoq, _____

2. Ovqatlangandan so'ng qanday minnatdorchilik bildirish mumkin? Yozing.

Rahmat, _____



Gaplarni o'qing. Yo'l qo'yilgan xatolarni to'g'rilab daftaringizga ko'chiring.

Four sets of handwriting lines for correction. Each set consists of four horizontal lines and a diagonal line from the bottom-left to the top-right, forming a grid for writing.



Matn qismlarini berilgan tavsiyalar bilan moslashtiring.




Qorningiz to‘q holda uxlamang.



Erta turing, ishtahangiz ochiladi.



Ertalabki nonushtadan bosh tortmang.



Nonushtada foydali mahsulotlarni yeng.



Nonushtada foydali mahsulotlarni yeng.



Sanash ohangi bilan o‘qiladigan gap tuzib yozing.

Namuna:

Nodira choynak, piyola, qoshiq va likopchalarni yuvdi.

Handwriting practice lines consisting of four columns of slanted lines and horizontal lines.



1. Izohlanayotgan soʻzni matndan topib daftaringizga yozing.

danagi olinib quritilgan oʻrik – **bargak**

kasal – _____

ichi chuqur, ogʻzi kichik sopol idish – _____

sogʻlik – _____

yashirin foydali maʼno – _____

oson hazm boʻladigan – _____

quritilgan oʻrik – _____

baʼzan – _____

2. Nonushtada qaysi mahsulotlarni isteʼmol qilish mumkinligini sheʼrdan ajratib yozing.


Nonushtada _____, _____, _____,
_____, _____ larni isteʼmol qilish mumkin.


3. Siz doʻstingizga nonushta uchun yana qanday mahsulotlarni tavsiya qilasiz? Yozing.

Nonushtada yana _____, _____, _____,
_____, _____ lar yeyish mumkin.




Nonushta uchun taomnoma tayyorlab yozing.






Tengdoshingizga ertalabki nonushta uchun tavsiyalar yozing. Tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘ying.


Nonushtadan oldin



Nonushta vaqtida




Nonushtadan keyin



TANAMIZNI O'RGANAMIZ

Inson tanasi qismlarining nomini yozing.



Four sets of horizontal blue lines for writing, each set starting with a diagonal line on the left side.

1.4.

a) Bosh qismidagi a'zolarning nomini yozing.


Four sets of horizontal blue lines for writing, each set starting with a diagonal line on the left side.


b) Gavda qismidagi a'zolarning nomini yozing.

Four sets of horizontal blue lines for writing, each set starting with a diagonal line on the left side.



3.2. A'zoning nomi bilan u bajaradigan vazifani moslashtiring.





Inson tanasidagi barcha a'zolari boshqaradi

Hid biladi

Qonni butun tanamizga yetkazib beradi

Ko'radi

Havodan kislorodni ajratib oladi

Eshitadi

3.3. Moslashtiring.

**Kislorodni
ajratib olish**

Yurak muskullari doimiy qisqarib, bo'shashadi. U bo'shashganda qon uning ichiga yig'iladi, qisqarganda qon tomirlarga otilib chiqadi.

**Qon
aylanishi**


Qon o'pkamizdan yurakka, yurakdan boshqa hamma a'zolarga, hamma a'zolaridan qaytib yana yurakka, keyin o'pkaga boradi. Bu doimiy takrorlanib turadi.

**Yurakning
urishi**

Havoning tarkibida kislorod bilan birga boshqa moddalar ham bo'ladi. O'pkamiz ana shu aralash moddalar ichidan faqat kislorodni oladi.



4.3. Rasmdagi mashqlarni tasvirlang.



5.2. Quyidagi ohangdosh soʻzlarning ohangdoshlik darajasini belgilang. Ohangdoshligi eng yuqori boʻlganiga bir qoʻyib, qolganini shu tarzda 2, 3 deb belgilaysiz.

- ___ yoʻtalmas – koʻtarilmas
- ___ doriga – ogʻrigan
- ___ shamoldir – barkamoldir

5.3. Inson shamollaganda tanasida qanday oʻzgarishlar boʻlishini yozing. Sheʼrda oʻqigan ifodalaringizdan foydalaning.

Inson shamollaganda

Handwriting practice lines consisting of horizontal and diagonal lines.




7.1. “Yo‘qolgan quloq” she‘ridagi voqeani o‘z so‘z-
laringiz bilan yozing. She‘rning boshi namuna sifatida
oddiy gapga aylantirib yozilgan. Siz davom ettirishingiz
kerak.


Uyimizda nimagadir
Bugun quloq yo‘qoldi...
Tushunolmay hayron bo‘ldim,
Oyim shunday deb qoldi.

*Bugun oyim “uyimizda quloq yo‘qoldi”, dedilar. Men
bu gapga tushunmay hayron bo‘ldim.*

Hech bunaqa gap chiqmagan
Edi mening oyimdan.




Qulog‘imni ushlab ko‘rsam
Xayriyatki, joyida.




Juda qiziq, qulog‘ini
Yo‘qotgan kim bo‘ldiykin?!







Hammamizning qulog'imiz
Joyida edi, lekin...



Dadam menga ko'zin qisib
Miyig'ida kulardi.



Ravshan akam yerga qarab,
Boshin egib turardi.




7.2. Siz yuqoridagi mashqni bajarish davomida nimalarni o'zgartirdingiz? Nima uchun shunday qildingiz?



HUNAR – HUNARDAN UNAR

Buyumlarga qarab ularni kim tayyorlaganini yozing.



Four sets of blue handwriting lines for writing the names of the craftspeople.



Berilgan soʻzlarga mos keluvchi qoʻshimchalarni aniqlang. Ular ishtirokida gaplar tuzib yozing.

soat

-gar

pichoq

doʻppi

gilam

-doʻz

-chilik

-soz

Four sets of blue handwriting lines for writing the names of the craftspeople using the provided suffixes.



Bo'sh o'rinlarni mos so'zlarni topib to'ldiring.

_____ boshlig'i pul uchun hamma narsaga ko'nishga tayyor edi. U yigitdan nimalar kerakligini so'rabdi. Yigit _____ uchun _____ keltirishlarini so'rabdi. _____ bu narsalarni _____ topib keltiradilar. So'ng yigit _____ ga kirishib ketibdi.


Qo'yish uchun so'zlar: jun, bolg'a, ertasi kuni, gilam to'qish, temir, o'g'rilar, ip, pichoq yasash, bir zumda, qaroqchilar, dastgoh.

Rivoyatdan olgan xulosangizni qisqacha yozing.

Blank writing area with horizontal and diagonal lines for text entry.



Rasmlarga qarab ko'za yasash jarayonini hikoya qilib yozing. Jarayondagi ketma-ketlikka e'tibor bering.



A large area of blue-lined paper for writing, consisting of 10 horizontal lines and 4 vertical lines forming columns.



KASBLAR

Qismlarni moslashtiring. Mos kelmaydigan o‘rinlarni aniqlang.

shifo
gul
osh
dars
somsa



...xona

shifo
gul
osh
dars
somsa



...paz

Qaysi kasb egasi nima ish qiladi?

Namuna: Shifokor – kasallarini davolaydi.

Oshpaz – _____
Bog‘bon – _____
Sotuvchi – _____
Rassom – _____
Quruvchi – _____
Dehqon – _____
Sartarosh – _____
Arxitektor – _____

O'zingizning 4 ta kamchiligingizni yozing.

Namuna:

1. Men dangasaman, darslarimni o'z vaqtida qilmayman.

1.

2.

3.

4.



KATTA BO‘LSAM, KIM BO‘LAMAN?

Ikkala ustunni o‘zaro moslashtiring.

Men



bo‘lmoqchiman,

chunki ovqat pishirishni yaxshi ko‘raman.

Men



bo‘lmoqchiman,

chunki rasm chizishni yaxshi ko‘raman.

Men



bo‘lmoqchiman,

chunki parvoz qilishni yaxshi ko‘raman.

Men



bo‘lmoqchiman,

chunki ustozimga o‘xshab boshqalarga bilim bergim keladi.

Men



bo‘lmoqchiman,

chunki kasallarni davolagim keladi.

Men



bo‘lmoqchiman,

chunki olovdan qo‘rqmayman, uni o‘chirib odamlar hayotini saqlab qolaman.

Men



bo'lmoqchiman,

chunki yomonlarni tutib yaxshi odamlarni himoya qilgim keladi.

So'zlarni o'zgartiring. O'rgangan qoidangiz asosida so'zlarni o'zgartiring.

Namuna: teryapman – teraman.

HOZIR	KEYIN
qilyapman	
yozyapman	
o'ynayapman	
ketyapman	
chizyapman	
ochyapman	
supuryapman	